

KATTA YO‘LDAGI KICHIK TAJRIBALAR

(2022-yilda chop etilgan “birinchi kitobim”

loyihasidagi she’riy to‘plamlar haqida)

*Qayumberdiyeva Nurjahon Muzaffar qizi**Erkin izlanuvchi. Tel: 998 97 134 08 98**E-pochta: nurjahonqayumberdiyeva@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada har yili an’anaviy tarzda chop etilayotgan yosh ijodkorlarning birinchi kitoblaridagi she’rlar tahlilga tortilgan. Yosh shoirlarning ilk hayajonlari, mashqlari va dadil ijodiy namunalari haqida atroflicha fikr yuritilib, kamchiliklariga tanqidiy munosabat bildirilgan. She’rlardagi yangi obrazlar, kichik badiiy kashfiyotlar, so‘z qo‘llashdagi ayrim kamchiliklar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy ijod, an’anaviy o‘zanlar, shoirlik tashxisi, tashbeh, istam, istaram, ko‘chirma.

Yangi iste’dod o‘z zamonasining kayfiyatini, xalqning ruhiyatini adabiyotga olib kiradi. She’rga ixlos qo‘yib, qalam tutganning hammasi ham bu vazifani bajarolmaydi, hammasidan ham shoir chiqavermaydi. Ular istiqbolida berilgan to‘g‘ri yo‘nalish, asosli tanqid va, albatta, e’tirof muhim. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi har yili “Birinch kitobim” loyihasi asosida yosh iste’dodlarga qanot bag‘ishlab, quvonchiga sherik bo‘lyapti. Butun adabiyot ahlini yangi ovozlari, jo‘shqin ilhomlar bilan tanishtirmoqda. Bu havaskorlar xoh adabiyotda qolsin, xoh yarim yo‘lda – unisi muhim emas. Muhimi, ular ayni damda adabiyotga tegishli, tomirlarida adabiyot oqmoqda. Butun xayol-xushi bilan adabiyotga oshiq. Kitob o‘z navbatida yuksak parvozlari uchun qanot vazifasini o‘taydi. Ularning badiiyati qay darajada, qanday so‘zxaltalar ko‘tarib adabiyot eshigiga intilmoqda, o‘quvchiga qanday tuyg‘ularni izhor qilmoqchi – degan savollarga umumiy holda an’anaviy o‘zamlardan chiqib ketilayotgani yo‘q, deb javob berish mumkin.

Katta adabiyot tan olib ulgurmagan yoshlar she’riyati e’tiborga, mulohazaga, fikr, taklif, tanqid-u e’tirofga muhtoj. Tan olingan shoirlar ijodidan ko‘ra ko‘proq muhtoj. Aynan ular gulqaychi uradigan pallada. Dastlabki she’rlarda hali shoirlik dardi anglanmaydi. Ba’zilariga shoirlik tashxisini qo‘yish ham noo‘rin. Biroq shoirlikka da’vo kuchli bo‘ladi. Ijodkor tabiatni kuzatadi, go‘zallik qidiradi va hayrat qo‘shiqlarini kuylagisi keladi.

Shu haroratni loyihada to‘plami chiqqan Sevinch Avazova she’rlariga nisbatan aytish mumkin. Butun to‘plamida bironta satrdan tushkun kayfiyatni sezmaydiz. Yozganlari sururli, ertaknamo, ba’zan tabassumli. O‘ziga yarasha kichkina

kashfiyotchalarini ham bor: “Muhabbat – bu bir avtomobil, eng tezyurar yangi rusumli” deb boshlangan she’rini

*G‘ildiraklar shoshar visolga
Tezlashadi so‘ng odimlari.
Faqat bizning yo‘lda buncha ko‘p
Hijronlarning DAN xodimlari*

degan qiyoslash bilan tugatadi. Tashbeh o‘ta sodda va yetarlicha asosga ega emas ham. Biroq yangilikka intilish bor. Bu jajji kitoblardagi yangilikka intilishni obrazlarda ham ko‘rish mumkin. Jamoliddin Badalov “Menglixon qissasi” she’rida mumtoz shoir Maxtumdulaning suyuqlisi Menglixon tasvirini yoritgan. She’r

*Maxtumdul – Haq qulin
Hiyla bilan yengdi Xon.
Yulib ketdilar gulin
Gulira‘no – Menglixon*

misralari bilan boshlanib, “hijroningda o‘ldim-ay! Yoshim artsam yengim qon. Kimga cho‘ri bo‘lding-ay, Mungli xonim Menglixon” deya Maxtumdul iztiroblari bilan yakunlanadi. Maxtumdul she’rlarining aksariyati Menglixonga bag‘ishlangani bilan o‘quvchi tanish. Kuyundi she’rlari ortidagi, davr odaticha, xon saroyining tutqun qushiga aylangan Menglixon obrazi yangi va she’rda yoritilgan ilk obraz deyolamiz.

Loyihadagi to‘plamlarda birinchi kitob saviyasidan ancha baland namunalar bor. Rashid Xo‘jamov, Tursunoy Ashuraliyeva, Gulhayo Anorovalarning kitobi haqida shunday deyish mumkin.

Rashidning she’rlarida biron muddao sezilmaydi, shunchaki yorug‘ tuyg‘ularga to‘yinib ketadi she’rxon. Masalan:

*Men kimni-yu
meni xayol surar kimlar,
Ko‘rarmi deb,
sochini qirq o‘rar kimlar,
Shoiringni
“Shoirim” deb yurar kimlar,
sen bilmaysan,
sen bilmaysan.*

To‘plami boshdan oxir mana shunday qaynoqqina, mag‘zi sovimagan she’rlardan iborat. Muhammad Yusuf she’rlari kabi yurakka jizillab tegadi. “Bir amallab kafanga sig‘sam, Xudo sen ham amallab kechir” jumlasini kabi samimiy, olifta to‘qimalardan uzoq satrlar har she’rida bor.

Shunday saviyali to‘plamlar bilan birga kitob bo‘lishga arzimaydigan she’rlar ham yo‘q emas. Qalin-qalin kitobchalardan bitta she’r topish mushkul hatto. Bu yilgi kitoblarni o‘tgan yilgilardan baland saviyada deyishimizga yoki ular bilan

taqqoslashga yo‘l bermaydigan kitoblar bor. Aksariyat she‘rlarda so‘z qimmatini yetarlicha baholanmagan, pishmay uzilgan mevaday xom. Quyidagi misralarni kuzatsak:

*Ayting nega kelaveradi
Xayolimga xayolingizlar.*

Bu jummlar hali she‘r darajasiga yetib ulgurmagan. “Xayolingizlar” so‘zi tilimiz qurilishida ham mavjud emas. Bunday g‘alilik o‘z tilida ijod qiluvchi uchun kichkinamas, katta va jiddiy xato. Yoki

*Bolari himmatini ko‘r:
Senga bol-u zahar menga.
Bul zahardan yurogimga
Shifo istam, davo istam.*

Band mazmunida nima deyilmoqchi, buni anglash qiyinligi mayli-ku, “yuragim” so‘zining “yurogim” ko‘rinishini qaysi uslubga kiritib, bu shakldan qanday ma‘no qidirish o‘ylantiradi. Bugun e‘lon qilinayotgan yoshlar ijodida bitta jarangdor yozilgan, yoki tarixiy variantda, yoki boshqacharoq shaklda qo‘llangan so‘zni yoppasiga boshqalarda ham uchratishday xunuk hodisa ro‘y bermoqda. Keltirilgan to‘rtlikning ham bandlar oxirida takrorlangan “istam”, “istaram” so‘zlari ayni damda “urf”ga kirgan. Birinchi marta o‘qilganida (Men Bashorat Otajonovning “Ko‘zimga ko‘zgu tut, men nur istaram” she‘rida o‘qidim) o‘zgacha jozibada namoyon bo‘ladi, so‘zning turfa shaklda evrilishi she‘rga ranginlik bag‘ishlaydi va o‘quvchining xotirasiga she‘r ham, muallif ham yorqin muhrlanadi. Keyingilari aksincha. Aynan shu so‘zni F. Xayrullayevaning “*Qo‘yib yubor, uchmoq istaram*”, M. Muzaffarning “*Bir anduh istaram Arsh taraflardan*” Jontemirning “*Hazratim, dunyoni yelkamga orting, sorig‘ dard istaram*”, F. Hasanovning “*Men asli ushshoqman, chin ishq istaram*”, K. Egamqulovning “*Men shul Chamanzorni kezmoq istaram*” satrlarida uchratamiz. Qatorni istagancha davom ettirish mumkin, lekin men cheklanmoq istaram. Bu so‘z “istayman” so‘zining mumtoz ko‘rinishi bo‘lib shoirlar ijodida (A. Navoiyning “*Istaram yetsam quyundek gul‘uzorim qoshig‘a*”, Z.M. Boburning “*Istaram o‘zni aziz elga ko‘runmasliktin*” g‘azallarida) “istamoq”, “izlamoq”, “so‘ramoq” ma‘nolarida qo‘llanilgan. Bugun shoirlar har biri g‘azallardan ilhomlanib qo‘llamayotgani tayin, albatta. Birinchi o‘qilganida ifoda hayratini o‘quvchi his qilib bo‘ladi. Keyingilari esa ta‘mi totib bo‘lingan taqlid mevasini beradi. Yoppasiga bir-biridan “ilhomlanish” bor. Yozib bo‘lingan so‘z ta‘sir kuchini butunlay yo‘qotgan. Iloji boricha undan qochgan ma‘qul. O‘rni kelganda aytish kerakki, 2020-yilgi “birinchi kitoblar” ham taqliddan holi emasdi. To‘plamlar bir so‘z, ibora, yoki kichik bir undovning ham bir xil takrori bilan zanjirday bog‘langan. Shahriyor Shavkatning

*Yig‘ildi, sochildi, eshildi ushshoq,
Chayqalib tingladi ko‘l-u nilufar.*

*Kuylagil,
Boy bo 'lsin man kabi qashshoq,
Ay, umri zeb-u zar,
Kunlari – guhar*

bandi bilan boshlangan she'rining har to'rtiligi "ay" undovi bilan tugaydi. Bu "ey" undov so'zining Shahriyorga xos ohangdor ko'rinishi. So'zni xuddi shunday murojaat bilan Nurmuhammad Azizov qo'llamoqda:

*Ay, yodi ruhafzo,
Ay, ruhi harir,
Layli zulf, lablari qo'qongilosim.*

Yoki Suhrob Ziyoda:

*Ko'zlarinda nega bo'shliqlar daydir,
Ay, mening sevgisiz sevgilim?!*

Har uchallasida ham undov suyuklisiga qaratilgan va bir-birini ongli ravishda takrorlagan. Bular e'tibor qilinadigan qusur bo'lmasa-da har she'rdan chiqib kelaversa tishga tegib qolarkan. Holatni tashbehlarida ham ko'ramiz. R. Xo'jamovning "Anor mening yuragim" she'rini o'qiganda yurakning anorday qizarib, tirqirab turganidan tasavvur yorishib ketadi. Lekin Azizbek Yusupovning "anor-anor yuraklarimiz" birikmasi yana ta'bni xiralashtiradi. Umuman olganda, bunday ko'chirmalar haddan ziyod ko'payib ketyapti. Dadil "ko'chirma" deyilishiga bois bugungi yosh ijodkorlar bir-birini kuzatmasligi mumkin emas. Chunki oqshomda yozilgan qoralama tongda tarmoqma-tarmoq ko'z-ko'z qilinyapti. Tengdoshlarni kuzatish yaxshi, biroq ular bilan baqamti ijod qilishda jindek andisha va tog'day vijdon kerak. Adabiyot ahli yangi gaplarni, orginal topilmalarni sog'inib yashaydi. Shoir aytilgan so'zimas, o'z so'zini aytmog'i lozim.

Quvonarlisi, to'plamlarga birinchi va chin bahoni so'zboshilar bergan. Aksariyat so'zboshilarda she'rning bir parcha yutug'i tutib olinadi. Qolgan illatlari shu bir parchaning ortiga yashirilib, "tajoluli orif" qilinadi. Bu yilgi to'plamlarga so'zboshi yozgan Eshqobil Shukur, Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Ulug'bek Hamdam, Xurshid Davron, Halima Ahmadday shoir-u adabiyotshunoslar har bir to'plamga munosib to'n bichgan. Ular aytib o'tganidek, yozilganlardan ayrim satrlarni topish va ajratib ko'rsatish mumkindir, ammo butun she'r topish qiyin. "Chala izhorlar, maromiga yetmagan tasvirlar va ifodalar bilan butun she'r yozishga erishib bo'lmasligi"ni ta'kidlaydi. Har bir so'zboshi o'rinli va to'plamlar to'lig'icha o'qib bo'lingach fikrlar o'zini oqlaydi.

Yo'ning boshida turganlar uchun tajribaning zavoli yo'q va shu yo'ning davomi iste'dodning qiymatini belgilaydi. Muhimi harakat, intilish to'xtamayotgani. "Birinchi kitob"lar o'z navbatida adabiy maydonga yangi qadamlar kirib kelayotganini

ko'rsatadi. Ular bugungi she'riyatni harakatga keltiruvchi kuch deyolamiz. Jajji kitobchalar kelajagi tom-tom bo'lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 2-jild. Fan. 1983.
2. Avazova S. Kulgichimda otadi tonglar. Toshkent, ADABIYOT- 2022.
3. Azizov N. Zarif g'ussalar. Toshkent, ADABIYOT- 2020.
4. Aziza Yusuf qizi. Tog'ning qizi. Toshkent, ADABIYOT- 2022.
5. Badalov J. O'tinch. Toshkent, ADABIYOT- 2022.
6. Masihulloh. Ertakli kunlar. Toshkent, ADABIYOT- 2022.
7. Xo'jamov R. Al'omon. Toshkent, ADABIYOT- 2022.
8. Yusupov A. Sabo sadosi. Toshkent, ADABIYOT- 2022.
9. Ziyo S. Ay, suygulim. Toshkent, ADABIYOT- 2020.
10. Sh. Shavkat. Ruhim qushlari. Toshkent, ADABIYOT- 2020.